

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**“TIQXMMI” MTU BUXORO TABIIY RESURSLARNI
BOSHQARISH INSTITUTI**

JUMAYEV AXROM ASROR O‘G‘LI

**BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ENERGETIKAGA OID
KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Доктор философии (PhD) диссертация педагогических наук
аннотированное содержание**

**Doctor of philosophy (PhD) dissertation in pedagogical sciences annotated
content**

Jumayev Axrom Asror o'g'li

Bo'lajak pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirish
metodikasinitakomillashtirish..... 3

Жумаев Ахром Асрор ўғли

Совершенствование методики развития креативности будущих
педагогических кадров по энергетике..... 21

Jumayev Axrom Asror o'g'li

Improving the methodology for developing future pedagogical personnel's
creativity in the field of energy 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
Listof published works..... 43

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**“TIQXMMI” MTU BUXORO TABIIY RESURSLARNI
BOSHQARISH INSTITUTI**

JUMAYEV AXROM ASROR O‘G‘LI

**BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ENERGETIKAGA OID
KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4473 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.iirpo.uz) hamda “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo‘rayev Akmal Razzoqovich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa dokori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

O‘rinov Uyg‘un Abdullayevich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ne‘matov Laziz Alisherovich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/29.10.2021.T.101.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2025-yil “___” ___ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200100, Buxoro sh., Q.Murtazoyev ko‘chasi 15, (8-365) 223-78-84, faks: 223-78-84; e-mail: bmti_info@edu.uz, Buxoro muhandislik texnologiya instituti ma‘muriy binosi, 2-qavat, 202-xona).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200100, Buxoro sh., Q.Murtazoev ko‘chasi 15, tel. (8-365) 223-78-84, faks: 223-78-84, E-mail: bmti_info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» ___ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» ___ dagi № ___ -raqamli reyestr bayonnomasi).

X.Q.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiykengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

R.X.Nurboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiykotibi, t.f.n., professor

S.S. Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, t.f.n., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ishlab chiqarish sohasining tobora rivojlanib borayotgan texnik murakkabligi, bo'lajak muhandislarning kasbiy intellektual va kreativ qobiliyatlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarining P. Debrai-Retzen «Talented Student Teacher Model» (France), US «Merit» (USA) kabi ta'lim tizimlarida bu borada samarali faoliyat olib borilmoqda. Ta'limning integratsiyalashuv jarayonida bo'lajak mutaxassislarining kreativligini rivojlantirish asosida rivojlantirish, oliy ta'limda ilg'or texnologiya va dasturiy ta'lim vositalaridan keng foydalanish, o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Dunyoda elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning o'sishi, elektr energiyaning sifat ko'rsatkichlarini oshirish uchun elektr ta'minoti tizimida yangi texnologiyalarning amaliyotda qo'llanilishi va elektr energiyasini an'anaviy turlaridan farqli o'laroq noan'anaviy turlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish rivojlanayotgan bir paytda, texnologik jarayonlardan unumli foydalana oladigan malakali kadrlarga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Energetika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartiga asoslangan malaka talablari va o'quv dasturlari mazmuni hamda bo'lajak pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirish faoliyatiga qo'yilgan innovatsion talablarni qamrab olgan ta'lim oluvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga ilmiy asoslangan ta'lim jarayonini shakllantirish tizimini tubdan takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, kasbiy dunyoqarashi bo'yicha faoliyatli kreativ yondashuvlar, muammoli o'qitish hamda tadqiqotchilik faoliyatiga o'rgatish, zamonaviy ta'limni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgan tub islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan energetika ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan bo'lajak pedagog kadrlarni energetikaga oid kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Mutaxassislikka oid fanlardan o'quv jarayonini virtual loyihalash, masofaviy ta'lim shakllarini keng tatbiq etish, ta'lim oluvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, dasturiy ta'lim vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"

farmonlari, 2018-yil 23-oktyabrdagi PQ-3981-son “Elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotining natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Texnika oliy ta‘lim muassasalarida “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qitishni tashkil etish muammosi, pedagogika sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni hal qilishda zamon talablariga javob beradigan malakali mutaxassis kadrlarning kreativligini rivojlantirish metodikasini rivojlantirib raqamli texnologiyalarga asoslangan holda ishlab chiqilgan dasturiy ta‘lim vositalar muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Respublikamizda o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan pedagogik olimlardan O.Musurmonova, F.M.Zakirova, U.Y.Yuldashev, S.S.G‘ulomov, N.I.Taylaqov, M.M.Aripov, A.Abduqodirov, U.SH.Begimqulov, G‘.A.Hayitov, B.B.Mo‘minov, H.O.Jo‘rayev, J.A.Xamidov, O.X.To‘raqulov, D.N.Mamatov, V.A.Tumalyev, I.Sh.Razzoqov, S.Q.Tursunov, A.T.Sinitsina, Sh.A.Muhammadiyev, F.H.G‘afforov, S.J.To‘rayev, A.R.Jo‘rayevlarning ilmiy tadqiqot ishlarida bo‘ljak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va o‘qitish metodikasini takomillashtirish tadqiq etilib nazariy asoslangan hamda bu masalalar xorijiy mamlakatlar olimlaridan I.N.Kupriyanov, A.V.Krasilnikova, A.G.Krasnova, I.M.Belyaev, V.A.Solovov, V.A.Osin, S.E.Polat, Yu.M.Buxarina, A.V.Starodubsev, A.Cropley, D.Cropleylar tomonidan tadqiq etilgan.

Ta‘limda kreativlik, kompetentlik va kompetensiya kabi tushunchalarning mazmun va mohiyatini o‘rganish hamda tadqiq qilish, shakllantirish, rivojlantirish va tashxislash, shuningdek pedagogik texnologiyalar yordamida ta‘lim mazmunini takomillashtirishni tadqiq qilish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar Respublikamiz olimlaridan N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, O.A.Qo‘ysinov, N.N.Karimova, Y.R.Najmiddinova, J.R.Turmatov, R.X.Fayzullaev, K.T.Umataliyeva, G.N.Ibragimova, N.N.Alimov va boshqalar tomonidan, MDH va xorijiy mamlakatlar olimlaridan V.I.Baydenko, A.A.Verbitskiy, N.A.Grishina, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, O.N.Yarigin, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkova,

A.V.Xutorskiy, C.R.Berger, W.Grabe, J.Harmer, L.Harvey va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish, texnik yo'nalishlar bo'yicha muhandis kadrlarni tayyorlash masalalari Respublikamiz olimlaridan M.Sharifxo'jayev, A.Abdullayev, A.Kucharov, M.Mahkamova, N.Nurimbetov, B.Umarov, Sh.Ergashxodjayeva, N.K.Yuldashyev, S.J.Bozorova, G.Xamdamovalar hamda xorijlik olimlardan T.Ribo, P.K.Engelmeer, P.M.Yakobson, J.Dikson, V.L.Kurovskiy, A.I.Vlaznev, N.Starshinov, R.Sternberg, D.Xamblin D.Coste, B.North, J.Trim, T.March, B.Tomlinson va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash jarayonini tashkil etish va takomillashtirish muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, "Elektr energetika" yo'nalishi talabalarining kreativligini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik va didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish muammolari tadqiq etilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida tashkil etish" mavzusi (2021-2024 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Bo'lajak pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak pedagog kadrlarni energetikaga oid kreativligini rivojlantirish va takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirishda, dasturiy ta'lim vositalarini qo'llash orqali ularning umumiy tuzulmasi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

elektr energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining energetikaga oid kreativligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

dasturiy ta'lim vositalari orqali bo'lajak pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida elektr energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining mutaxassislikka oid fanlar bo'yicha kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutlaridan 330 nafar talabalar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti bo'lajak pedagog kadrlarni energetikaga oid kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan adabiyotlar tahlili, kuzatuv, umumlashtirish, so'rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirishda tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablarga novatorlikka oid kasbga yo'naltirilgan masalalar, tashxislash va kuzatuvchanlik, texnik taffakur, texnikani boshqarish bo'yicha dasturiy vositalar orqali o'qitishning zamonaviy didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

fan, ta'lim va ishlab chiqarish korxonalarini amaliy integratsiyalash ya'ni, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va qurilmalari, quyosh panellari, shamol qurilmalari, quyoshfotoelektr stansiyalari loyihalarini tuzishda elektr energetika ta'lim yo'nalishidagi talabalarning mutaxassislikka oid fanlarni o'qitishda dasturiy ta'lim vositalari orqali ularning umumiy tuzilmasi (ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari) va o'ziga xos jihatlari (testlar, video lavhalar, 3D animatsiyalar, lug'atlar) rivojlantirilgan;

elektr energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining energetikaga oid kreativlik sifatlarini oshirishga qaratilgan (innovatsion, kreativ, tanqidiy, amaliy, interaktiv) yondashuvlar dasturiy ta'lim vositalarining didaktik, o'quv-metodik, vizuallik, diagnostik, intellektual imkoniyatlari bilan innovatsion o'qitish metodlarini integratsiyalashga asoslangan modeli takomillashtirilgan;

bo'lajak muhandis pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantiruvchi infratuzilmasini shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalarni ta'lim jarayonida amaliy tatbiq etishga oid ijtimoiy, kommunikativlik, intellektuallik va axborotlilikka asoslangan o'qitish metodikasini paradigmatik takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak pedagog kadrlarni energetikaga oid kreativligini rivojlantirish sifatini oshirishga qaratilgan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

bo'lajak mutaxassislarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini metodik jihatdan baholash imkonini beruvchi mezonlar sifatida foydalaniladigan 3D animatsiyalar, video lavhalar, foto lavhalar, taqdimotlar, nostandart testlarni qamrab olgan "Ta'limda axborot texnologiyalari" nomli elektron o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

vizual materiallar orqali texnik-texnologik jarayonlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan fanni o'qitishda o'quv dasturining umumiy mazmuniga asoslangan animatsiyalar, video lavhalar, foto lavhalar, taqdimotlarni qamrab olgan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va foydalanish texnologiyalari" va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalarning montaji texnologiyalari" nomli elektron darslik ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan yondashuv, metodlar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari tahlili yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model, ishlab chiqilgan dasturiy ta’lim vositalari texnika oliy ta’lim muassasalarining energetikaga oid ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonlarini tizimli yondashuv asosida tashkil etish, o‘quv reja va dasturlarni takomillashtirish, ta’limni strategik rivojlantirish, keyingi innovatsion kasbiy faoliyatda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan oliy ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlash, o‘quv jarayoni mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan davlat talablarini ishlab chiqish, innovatsion metodlar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan esa o‘quv reja va dasturlar hamda malaka talablarini takomillashtirish, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish va bo‘lajak pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirish tizimi mazmuni, kasbiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak pedagog kadrlarni energetikaga oid kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodika, taklif va tavsiyalar hamda ilmiy natijalar asosida:

bo‘lajak muhandis pedagog kadrlarni energetikaga oid kreativligini rivojlantirishda tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar tashxislash va novatorlikka oid kasbga yo‘naltirilgan masalalar va kuzatuvchanlik, texnik taffakur, texnikani boshqarish bo‘yicha dasturiy vositalar orqali o‘qitishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirishga oid ma’lumotlar “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-son buyrug‘i, 302-0718-raqamli guvohnomasi). Natijada texnika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga erishilgan;

fan, ta’lim va ishlab chiqarish korxonalarini amaliy integratsiyalash ya’ni, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va qurilmalari, quyosh panellari, shamol agregatlari, foto elektr stansiyalari loyahasini tuzishda elektr energetika ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning mutaxassislikka oid fanlarni dasturiy ta’lim vositalar orqali o‘qitishda ularning umumiy tuzilmasi (ma’ruza mashg‘ulot, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘ulot) va o‘ziga xos jihatlarini (testlar, video lavhalar, 3D animatsiyalar, lug‘atlar) rivojlantirishga doir nazariy ma’lumotlar “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” nomli elektron darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligining 2022-yil yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrig‘i, 302-0798-raqamli guvohnomasi). Natijada talabalarni mutaxassislikka tayyorlashda vizual-animatsion videodarslar

orqali “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va foydalanish texnologiyalari” fanini o‘qitishning samaradorligini oshirishga erishilgan;

elektr energetika ta’lim yo‘nalishi talabalarining energetikaga oid kreativlik sifatlarini oshirishga qaratilgan (innovatsion, kreativ, tanqidiy, amaliy, interaktiv) yondashuvlar dasturiy ta’lim vositalarining didaktik, o‘quv metodik, vizuallik, diagnostik, intellektual imkoniyatlari bilan innovatsion o‘qitish metodlarini rivojlantirish modelini mazmunan takomillashtirishga oid takliflar “Ta’limda axborot texnologiyalari” nomli elektron o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrug‘i, 302-0530-raqamli guvohnomasi). Natijada texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish orqali bo‘lajak pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

bo‘lajak muhandis pedagog kadrlarni energetikaga oid kreativligini rivojlantiruvchi infratuzilmasini shakllantirishda dasturiy ta’lim vositalarni ta’lim jarayonida amaliy tatbiq etishga oid ijtimoiy, kommunikativlik, intellektuallik va axborotlilikka asoslangan o‘qitish metodikasini paradigmik takomillashtirishga oid tavsiyalar “Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji texnologiyalari” nomli elektron darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligining 2022-yil yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrig‘i, 302-0717-raqamli guvohnomasi). Natijada tahsil olayotgan bo‘lajak kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirishda vizual-animatsion videodarslar orqali “Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji texnologiyalari” fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga erishilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 32 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, bulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyrug‘i asosida 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta elektron darslik, 1 ta elektron o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan, 7 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarida nashr etilgan. 1 ta dasturiy ta’lim vositasiga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 146 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob‘ekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak pedagog kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativligini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili, joriy holati va istiqbollari, mutaxassislikka oid fanlarni o'qitishning didaktik shart-sharoitlari yoritilgan. Shuningdek, mazkur muammoning mamlakatimiz, hamdo'stlik va xorijiy davlatlarda o'rganilganligi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Bunda elektr energetika ta'limi yo'nalishida mutaxassislikka oid fanlarida qo'llaniladigan didaktik tamoyillari ularning fanni mazmunini takomillashtirishda o'z ifodasini topishi ko'rsatilgan.

Yuqorida nomlari qayd qilingan mualliflar tomonidan o'quv materiallarini loyihalashning umumiy jihatlari borasida nazariy va amaliy ahamiyati ilgari surilgan bo'lsada, ayni vaqtga qadar oliy ta'limda elektr energetika ta'lim yo'nalishidagi mutaxassislikka oid fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, didaktik materiallar yaratish va zamonaviy o'qitish metodlari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.



1-rasm. Bo'lajak energetika sohasi mutaxassislarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirishda ta'sir etuvchi didaktik omillar

Elektr energetika ta'limi yo'nalishida mutaxassislikka oid fanlarning asosiy masalasi turli elektr energetikasi qurilmalarining qismlari, detallari va yig'ma birliklarining loyihasini tuzish, elektr energetikasi qurilmalarining ishchi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish, elektrotexnik qurilmalarning ishlash prinsipi, tuzilishi, ularda himoya apparlarini tanlash, ekspluatatsiyasi va qayta yig'ish holatlarini o'rganish va ulardan amalda foydalanishdan iboratdir. Bo'lajak mutaxassislar tomonidan fanni o'rganish mobaynida muhandislik ishi

sohasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, sinash va ulardan samarali foydalanish hamda hisoblash usullarni o'rgatishga e'tibor qaratiladi. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarining mazmuni va o'qitish metodikasi nuqtai nazardan qaratilgan izlanishlar quyidagi muammolarni hal etish imkonini berdi:

Bo'lajak pedagog kadrlarning energetika oid kreativligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi didaktiv omillar o'rganildi (1-rasmga qarang).

Mutaxassislikka oid "Qayta tiklanuvchi energiya manbalar" va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji" fanlarini o'qitishni takomillashtirish metodikasiga oid ilmiy izlanishlar o'rganildi va tahlil qilindi;

Texnik oliy ta'lim muassasalarida "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji" fanlariga oid mashg'ulotlarni tashkillashtirish holati tahlil qilindi va uning samaradorligini oshirish shart-sharoitlari aniqlandi;

Texnika oliy ta'lim muassasalarida "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji" fanlarini o'qitishning didaktik tamoyillari keltirib o'tildi;

"Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji" fanlariga oid mashg'ulotlarni tashkillashtirishda talabalarning ilmiy bilish faoliyatiga samarali ta'sir etish omillari, ularni rivojlantirish yo'llari, hamda mashg'ulotlarni tashkil etishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;


"Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji" fanlar mazmuni hozirgi zamon elektrotexnikasining dolzarb yo'nalishi bilan takomillashtirilishi kerakligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **"Talabalarning energetika oid kreativligini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish"** deb nomlangan ikkinchi bobida texnika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlaridan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi qayta ko'rib chiqilib, elektr energetika sohasida "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji" fanlarining qo'llanishiga oid materiallar ishlab chiqish asosida kasbiy yo'naltirilgan dasturiy vositalar hamda bo'lajak elektr_energetik mutaxassis kadrlarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan.

Dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan izlanishlar asosida "Elektr energetika", "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan mutaxassislik o'quv blokidan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" fan dasturining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" bo'limlari va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalar montaji" tanlov fan bo'yicha ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar olib borishda talabalar bilim va ko'nikmalarining ishlab chiqarish sohasida qo'llanilishiga oid didaktik materiallar ishlab chiqilgan.

Ilmiy izlanishlar asosida talabalarning mutaxassis darajasiga erishishida auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limda o'zlashtirishi lozim bo'lgan mutaxassislik fanlaridan bilim va ko'nikmalar, ularni shakllantirish metodikasi hamda dasturiy ta'lim vositalardan foydalanish, mantiqiy tuzilmasi aniqlanib,

bo'lajak muhandis-pedagoglarni kasbiy faoliyatga kreativ tayyorlash jarayonida dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish muhitida mutaxassis tayyorlash modeli takomillashtirildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Talabalarining energetikaga oid kreativligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli

Takomillashtirilgan modelning mazmuni

Malaka talablarida: talabalarni tayyorlashga qo'yiladigan ilmiy-tadqiqot, muhandislik-qidiruv va loyihaviy-konstruktorlik, ishlab chiqarish-texnologiya, tashkiliy-boshqaruv, foydalanish-servis, pedagogik faoliyat turlari nazarda tutilgan.

Maqsad: mutaxassislikka oid fanlarini o'qitishda talabalarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, bo'lajak pedagoqlarni didaktik yondashuvlar, innovatsion tamoyillarga asoslanib ijodkor qilib shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik, tashkiliy-metodik xususiyatlarini o'rganish asosida o'qitishdan iboratdir.

Innovatsion texnologiyalar: "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va foydalanish texnologiyalari" va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalari montaji va foydalanish texnologiyalari" nomli elektron darsliklar mutaxassislikka oid "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" va "Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalari montaji" fanlarini auditoriyada va mustaqil o'rganuvchi shuningdek talabalar uchun auditoriyada berilgan ta'limni yanada mustahkamlash, o'z ustida ishlashni osonlashtirish, o'zining reytingini belgilash, istalgan vaqtda shaxsiy mobil telefoni yoki kompyuterlaridan foydalangan holda 80-90% o'zlashtirish natijasiga erishish imkonini beradi.

Ta'lim mazmuni va jarayoni: talabalarda o'quv materialini dasturiy ta'lim vositalari asosida mustaqil o'rganish malakasini shakllantirish jarayoni o'qituvchi tomonidan maqsadli tashkil etiladi va uning nazorati ostida amalga oshiriladi.

Ta'lim texnologiyalar va metodlar: "Elektr energetika" yo'nalishi talabalarining kreativligini rivojlantirishda quyidagi innovatsion ta'lim texnologiya va metodlarining samarali imkoniyatlarga ega ekanligini e'tirof etish mumkin: "Bahs-munozara", "Debat", "Kichik guruhlarda ishlash", "Klaster". Ushbu ta'lim texnologiyasi va metodlari talabalarda kreativ faoliyat malakalarini va jamoaviy faol ishlashni tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu metodlarning barchasi amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarda kreativlik, yaratuvchanlik, konstruktorlik va texnologik kompetentsiyalarini rivojlantiradi.

Natijaviy komponent o'z ichiga baholash mezonlari (ijtimoiy, kommunikativ, intellektual va axborotli) va tayyorgarlik darajalari (kreativ, izlanuvchi, produktiv va reproduktiv)ni qamrab olgan. Dasturiy ta'lim vositalarini qo'llash asosida talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda talabalarning funksional, psixologik va fiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi shart. Talabalarni o'qitish jarayonida, kreativligining rivojlanganlik darajasini avtomatik aniqlash va obyektiv baholashga, dasturiy ta'lim vositalardan amalda nazorat qilish imkonini beruvchi mezonlar va ko'rsatkichlar tanlanib, baholash vositalari sifatida foydalanilgan hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilganligi, nazariy materiallarni o'zlashtirish amaliy mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo'lib, o'qitishning elektron-dasturiy va metodik ta'minoti bo'yicha dasturlashtirilgan elektron didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi (3-rasmga qarang).

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Elektrotexnik materiallar



3-rasm. Elektron darsliklarning bosh oynasi

Yuqorida ta'kidlangan ta'lim jarayonining muammolarini bartaraf etishda, dasturiy ta'lim vositalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish, talabalarning energetikaga oid kreativligini, texnologik bilim, ko'nikmalarini shakllantirish, o'z tajribalarini ijodiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarini innovatsion bilimlar asosida rivojlantirish maqsadida dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning takomillashtirilgan metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi va tajriba-sinov dars mashg'ulotlari o'tkazildi.

60710600 – Elektr energetika ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi mutaxassislikka oid fanlar blokidagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” va “Elektrotexnik materiallar. Elektr uskunalari montaji” fanlaridan yaratilgan elektron darsliklar bilan birgalikda “Ta'limda axborot texnologiyalari” nomli elektron o'quv qo'llanma asosida ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi takomillashtirilib, dars mashg'ulotlarining texnologik xaritalari va ishlanmalari ishlab chiqilgan va tanlangan tajriba guruhlar o'quv jarayonlarining dars mashg'ulotlarida foydalanildi.

Dissertatsiya ishining “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish va natijalar tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi ishlab chiqilib, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlili va samaradorlik darajasi haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Ishlab chiqilgan dasturiy ta'lim vositalari asosida mutaxassislikka oid fanlarini o'qitish metodikasi samaradorligini tajribaviy tekshirish va baholash Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 60710600 – Elektr energetika ta'lim yo'nalishi talabalariga qo'llash orqali olib borildi.

Tajriba-sinov ishi uch bosqichda 2020-2021, 2021-2022, 2022-2023 o'quv yillari mobaynida amalga oshirilib, tajriba va nazorat guruhlarida jami 330 nafar talabalar ishtirok etdi. Shundan, Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti misolida tajriba-sinov ishlarida jami 121 nafar jumladan, tajriba guruhlarida 61 nafar, nazorat guruhida 60 nafar, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti misolida tajriba-sinov ishlarida jami 97 nafar, shundan tajriba guruhlarida 50 nafar, nazorat guruhida 47 nafar va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti misolida tajriba-sinov ishlarida jami 112 nafar, shundan tajriba guruhlarida 55 nafar, nazorat guruhida 57 nafar talaba respondentlar qatnashdi. Tajriba-sinov va nazorat guruhlarida jami 330 nafar shundan, tajriba guruhlarida 166 nafar va nazorat guruhida 164 nafar talaba respondentlar ishtirok etdi.

Talabalarni mutaxassislikka oid fanlari bo'yicha kasbiy faoliyatga kreativ yondashuv asosida tayyorlash holati tekshirildi; shuningdek yuqorida ko'rsatib o'tilgan oliy ta'lim muassasalari talabalarining tayyorgarlik holati tahlil qilindi.

Mutaxassislikka oid fanlarini o'rganishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish jarayoni tahliliy pedagogik tajribalar asosida o'rganildi va umumlashtirilib, anketa so'rovnomalari o'tkazildi.

